

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b> Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'рни va ahamiyati .....	6
<b>K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov</b> Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
<b>Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov</b> Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida) .....	22
<b>T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov</b> Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari .....	30
<b>O.T.Mirzamahmudov</b> Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari .....	36
<b>O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva</b> Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri .....	41
<b>G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b> Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
<b>Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov</b> Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish .....	54
<b>R.Y.Xoliqov</b> Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
<b>K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov</b> Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
<b>Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov</b> Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash .....	68
<b>D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov</b> Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
<b>K.M.Xakimov</b> Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida .....	87
<b>Y.B.Raxmatov</b> Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari .....	93
<b>R.T.Pirnazarov</b> Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari .....	96
<b>P.R.Qurbonov</b> Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
<b>H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva</b> Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
<b>Z.X.Madaminov</b> Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish .....	118
<b>E.G'.Mahkamov</b> Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari .....	122
<b>Z.A.Temirov</b> Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
<b>M.M.Avezov, A.M.Elmurotova</b> Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif .....	135
<b>M.R.Usmanov</b> O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

**KATTAQO'RG'ON TUMANINING GEOLOGIK VA OROGRAFIK TUZILISHIGA UMUMIY  
TABIY GEOGRAFIK TAVSIF****ОБЩЕЕ ФИЗИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ГЕОЛОГИЧЕСКОГО И  
ОРОГРАФИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ КАТТАКУРГАНСКОГО РАЙОНА****GENERAL PHYSICAL GEOGRAPHIC DESCRIPTION OF THE GEOLOGIC AND  
OROGRAPHIC STRUCTURE OF KATTAKURGAN REGION****Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, g.f.f.d. (PhD)**Elmurotova Aziza Mahmatmurod qizi<sup>2</sup>**<sup>1</sup>Toshkent shahri Mirobod tumani 218-IDUM**Annotatsiya**

*Ushbu tadqiqot ishida Kattaqo'rg'on tumanining orografik va geologik tuzilishini tahlil qilish uning maqsadi qilib belgilandi. Mazkur ilmiy ishni bajarish davomida adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash, kartografik, dala tadqiqot, GIS texnologiyalari kabi bir qancha metodlardan foydalanildi. Tadqiqot ishining adabiyotlar tahlili qismida, Kattaqo'rg'on tumani tabiiy sharoitining o'rganilganlik darajasi atroflicha ko'rib chiqildi. So'ngra, tumanning geografik o'rni, yer yuzasining geologik hamda orografik tuzilishi tahlil qilindi. Bunda, Kattaqo'rg'on tumanining hududining geologik tarixi, tog' hosil bo'lish jarayonlari, ushbu burmalanishlar natijasida shakllangan hozirgi orografik strukturalar (Oqto'v va Zirabuloq tog'lari va Kattaqo'rg'on botig'i) o'rganildi. Bunga qo'shimcha ravishda, tuman hududida shakllangan geologik svitalar, komplekslar, ularning paydo bo'lgan eralari (davrlari), svitalar va komplekslar qatlamlarining qalinligi, qanday tog' jinslaridan tarkib topganligi hamda bu yotqiziqalar tuman hududining qaysi qismlarida uchrashi tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida, Kattaqo'rg'on tumani hududi turli xil tog' jinslaridan tashkil topganligi, ularning orasida qadimgi tog' jinslaridan tortib hozirgi davr yotqiziqalarigacha uchratish mumkinligi haqida xulosa qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida Kattaqo'rg'on tumani geologik xaritasi ArcGIS 10.8 dasturi orqali tuzildi.*

**Аннотация**

*Целью исследования является анализ орографического и геологического строения Каттакорганского района. При выполнении данной научной работы использовались несколько методов, таких как работа с литературой и фондовыми материалами, картографические, полевые исследования, ГИС-технологии. В литературно-аналитической части исследовательской работы подробно рассмотрен уровень изученности природных условий Каттакорганского района. Затем было проанализировано географическое положение района, геологическое и орографическое строение земной поверхности. При этом изучена геологическая история территории Каттакорганского района, процессы горообразования и современные орографические структуры, образовавшиеся в результате этих складок (горы Актау и Зирабулок, Каттакорганская впадина). Кроме того, на территории района сформировались геологические свиты и комплексы, эпохи (периоды) их появления, мощность слоев свит и комплексов, какими породами они сложены, а также части района, где эти отложения находятся. найденные были проанализированы. В результате исследований был сделан вывод, что территория Каттакорганского района состоит из разнообразных пород, среди которых можно встретить от древних горных пород до современных отложений. На основе полученных данных с помощью программного обеспечения ArcGIS 10.8 была создана геологическая карта Каттакорганского района.*

**Abstract**

*The purpose of the study is to analyze the orographic and geological structure of Kattakurgan district. Several methods such as work with literature and stock materials, cartographic, field studies, GIS-technologies were used in the fulfillment of this research work. In the literature and analytical part of the research work, the level of study of natural conditions of Kattakurgan district was considered in detail. Then the geographical position of the district, geological and orographic structure of the earth's surface were analyzed. The geological history of the territory of Kattakurgan district, the processes of mountain formation and modern orographic structures formed as a result of these folds (Aktau and Zirabulok mountains, Kattakurgan depression) were studied. Besides, geological formations and complexes were formed on the territory of the district, epochs (periods) of their appearance, thickness of layers of formations and complexes, what rocks they are composed of, as well as parts of the district where these sediments are located. found were analyzed. As a result of the research it was concluded that the territory of Kattakurgan district consists of a variety of rocks, among which can be found from ancient rocks to modern sediments. Based on the data obtained, a geologic map of Kattakurgan district was created using ArcGIS 10.8 software program.*

**Kalit so'zlar;** geologik tuzilish, tog' jinsi, orografiya, svita, tog'lar, tog' tizmalari, geologik majmualar, intruziyalar, alluvial jinslar, prolyuvial jinslar.

**Ключевые слова:** геологическое строение, горные породы, орография, свита, горы, горные хребты, геологические комплексы, интрузии, аллювиальные породы, пролювиальные породы.

**Key words:** geological structure, rocks, orography, formations, mountains, mountain ranges, geological complexes, intrusions, alluvial rocks, proluvial rocks.

## KIRISH

Hududning tabiiy sharoitini tavsiflashda, uning geologik, geomorfologik va orografik tuzilishi mazkur hududda tarqalgan tuproq qoplami, o'simlik hamda hayvonot dunyosining, bu orqali esa butun tabiiy sharoitning shakllanishida muhim omillardan hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan esa, joyning geologik va orografik tuzilishi mazkur hududning qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini, tabiiy sharoit bilan bog'liq sanoat tarmoqlarining shakllanish istiqbollari belgilab beradi. Jumladan, mamlakatimizning paleozoy, mezozoy erasi tog' jinslari tarqalgan hududlarida rudali foydali qazilmalar ko'p uchraydi va bunga bog'liq ravishda tog'-kon sanoati, qora va rangli metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari shakllanadi. Aksincha, yurtimizning nisbatan yoshroq geologik-orografik tuzilishga ega bo'lgan, paleogen, neogen va to'rtlamchi davrlarida shakllangan hududlari esa rudamas foydali qazilmalar va yoqilg'i resurslariga boy sanaladi. Shu jihatlarni hisobga olsak, hududlarning geologik, geomorfologik va orografik tuzilishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ham hududlarning geologik-geomorfologik tuzilishini chuqur o'rganish, yangi foydali qazilma konlarini izlab topish hamda hududlarni barqaror rivojlantirishda ularning tabiiy sharoiti, potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 315-son qarori misolida ham ko'rishimiz mumkin [8].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu ishning maqsadi etib Kattaqo'rg'on tumanining orografik, geomorfologik va geologik tuzilishini tahlil qilish belgilandi. Tumanning geologik-geomorfologik hamda orografik tuzilishini geologik svitalar va komplekslar tarqalishiga bog'liq holda o'rganish va tadqiqot natijalarini ArcGIS dasturi asosida kartalashtirish tadqiqot ishining vazifasi sanaladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kattaqo'rg'on tumani tabiatiga oid ma'lumotlarni P.Baratovning "O'zbekiston tabiiy geografiyasi", I.Hasanov va boshqalar muallifligidagi "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" nomli o'quv qo'llanmalardan o'rin olgan O'rta Zarafshon okrugi mavzusida uchratishimiz mumkin [2, 196-204-b.; 4, 243-249-b.]. Mazkur adabiyotlarda O'rta Zarafshon okrugining geologik tuzilishi, orografiyasi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot olami haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Bundan tashqari, I.Hasanov va boshqalar muallifligidagi "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" nomli o'quv qo'llanmada okrugning tabiiy geografik rayonlashtirishi yoritilgan bo'lib, unga ko'ra Kattaqo'rg'on tumani hududi 2 ta tabiiy geografik rayonda joylashgan hisoblanadi [4; 246-247-b.].

Shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy ishlardan ham tumanimiz tabiati haqida ma'lumotlar uchraydi. Bunday ilmiy ishlar sirasiga, F.Abdiqulovning "Samarqand viloyati bioiqlimiy sharoitlari va ulardan turizmni rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishida tuman tabiatiga qisqacha umumiy tabiiy geografik tavsif berib o'tilgan [1]. Bunga qo'shimcha ravishda, J.Hasanovning "O'rta Zarafshon havzasi landshaftlarida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari" [7], R.Ziyayevning "Zarafshon havzasi daryolari suv rejimi fazalarining iqlim o'zgarishi sharoitidagi siljishlari" kabi dissertatsiya ishlarida ham tumanning tabiiy sharoiti haqida ayrim ma'lumotlar berilgan [6].

Mazkur ilmiy ishni bajarish mobaynida, dala tadqiqot, GIS texnologiyalari, kartografik, adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash kabi metodlardan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kattaqo'rg'on tumani siyosiy-ma'muriy jihatdan Samarqand viloyatida, tabiiy jihatdan esa tumanga Zarafshon daryosining ikki tarmog'i ya'ni Oqdaryo va Qoradaryo daryolari hamda ular orasida shakllangan Miyonqol orolining g'arbiy qismi kiradi. Tumani shimoldan Oqtov tizmasi, janubdan esa Zirabuloq tizmasi o'rab turadi. Ularning orasida esa Kattaqo'rg'on botig'i shakllangan [4; 243-244-b.].

Ma'lumki, Oqtov tog'lari Turkiston tizmasining, Zirabuloq-Ziyobuddin tog'lari esa Zarafshon tizmasining g'arbiy davomi hisoblanadi. Demak, mazkur tog'lar Zarafshon va Turkiston tizmalari bilan bir xil shakllanish va rivojlanish bosqichlariga ega hisoblanadi. Bu esa Oqtov va Zirabuloq tog'lari xuddi Zarafshon va Turkiston tizmalari singari turli yoshdagi svitalar hamda murakkab intruziv jinslardan tashkil topishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz hududidagi qadimgi tog'lar gersin tog' burlamalanishida, ya'ni toshko'mir va perm davrlarida yuzaga kelgan [3; 69-b.]. Zarafshon va Turkiston tizmalari ham mazkur tog' burlamalanish bosqichida ko'tarilgan. Shu sababli Oqtov tizmasining janubiy yonbag'irlarida kechki rifey yotqiziqlaridan tortib kembriy, ordovik, silur, devon davrlariga tegishli

yotqiziqnlarni ham uchratish mumkin. Gersin burmalanishida vulkanizm jarayoni jadal kechganligi sababli toshko'mir davrida Oqtov, Zirabuloq tizmalarida granitoid tarkibga ega yirik intruziv massivlar, ya'ni *batolitlar* yuzaga kelgan (hozirgi vaqtda bu batolitlarning yuzasi ekzogen jarayonlar natijasida yemirilib, ochilgan va yer yuzasiga chiqib qolgan). Keyinchalik mezozoy erasida bu hududlarda endogen jarayonlar faolligining pasayishi va ekzogen jarayonlarning intensivlashuvi natijasida mazkur tog'lar yemirilib, pasayib qolgan. So'ngra, kaynozoy erasining neogen davrida alp burmalanishi sodir bo'lganligi sababli yurtimizdagi ko'plab tizmalar sigari Zarafshon va Turkiston tizmalari ham qayta burmalanishga uhab, ko'tariladi. Bu jarayonda Zarafshon va Turkiston tizmalaridagi qatlamlar o'zining *deformatsiyalanish*, ya'ni egiluvchanlik xususiyatini yo'qotganligi sababli uzilmali-palaxsali tog'larni hosil qiladi. Natijada, hozirgi kunda tuman hududida Oqtov va Zirabuloq *gorstlaridan* iborat anteklizalar, shuningdek, ularning oralig'ida Kattaqo'rg'on botig'i, ya'ni *graben (sinekliza)* hosil bo'lgan. Tabiiy geografik jihatdan tuman hududiga Oqtov tizmasining janubiy yonbag'ri va Zirabuloq shleyfi, shuningdek, Kattaqo'rg'on botig'i kiradi. Quyida aynan mana shu hududlarda tarqalgan geologik yotqiziqnlarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, tuman hududidagi eng qadimgi tog' jinslari kechki rifey burmalanish davrida shakllangan *suyaltosh svitasi* jinslari hisoblanadi. Ular tumanning g'arbiy qismidagi Jizmonsoy va Langarsoy soylarining o'rta oqimida tarqalgan bo'lib, asosan to'q kulrang dolomitlar, kremniy-karbonatli jinslar, stromatolitlar kamaziidlardan tashkil topgan (*1-rasm*).


Kattaqo'rg'on tumani hududida paleozoy erasi jinslari katta maydonni egallaydi. Xususan, bunda Oqtov tizmasining janubiy yonbag'rida yer yuzasiga chiqib qolgan kembriy-ordovik sistemasida hosil bo'lgan *kalsarin* hamda *jivachisoy svitalari*, ordovik sistemasida hosil bo'lgan *jalatar svitasi*, silur sistemasida hosil bo'lgan *jazbuloq* va *naukat svitalari*, hamda karbon sistemasida hosil bo'lgan *Darasoy svitasi*, yuqori karbon intruziv granodioritli-amadellitli yotqiziqnlardan iborat *Shurak kompleksi* mavjud. Ushbu svitalar Oqtov tizmasining yo'nalishi bo'ylab, ya'ni janubi-sharqdan shimoli-g'arbgga tomon bir-biriga parallel ravishda joylashgan. Ularda uchraydigan tog' jinslari, asosan, mergellar, ohaktoshlar, dolomitlar, kvarsitlar, marmarlar, konglomeratlar, qumtoshlar, gravelitlar, alevrolitlar, argillitlar, slyudali-slaneslar va boshqalar hisoblanadi. Bu svitalarning qalinligi Jazbuloq svitasida 100 metrdan Oqtov seriyasida 2000 metrgacha yetadi.

Tuman hududida mezozoy erasiga tegishli tog' jinslari uchramaydi. Neogen davrida alp burmalanishining yuz berishi O'rta Osiyo janubi-sharqiy qismlarining baland tog'lar bilan o'ralishi va hududlarda muzliklarning to'planishi, yog'inlarning yog'ishi natijasida yirik daryolarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ular asta-sekinlik bilan tog'lardan tekisliklar tomon oqa boshladi. Bu jarayonda, tabiiyki, daryolar o'zining eroziya, transportirovka va akkumulyatsiya ishini bajardi. Shu tufayli, tog'larda daryolar tor vodiylar hosil qildi, botiq yerlarni o'z tarkibidagi loyqalar bilan to'ldirdi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo relyefi va geologik tuzilishining shakllanishida to'rtlamchi davr daryolarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Ushbu holat tuman hududi uchun ham o'rinlidir. Chunki tumanimiz hududida ham paleozoy erasida shakllangan jinslar hozirgi soy va daryolar ishi natijasida kuchli parchalanib ketgan. Bunday svitalar sirasiga, Oqtov tizmasining tog' oldi hududlarida, neogen-to'rtlamchi davr sistemasida shakllangan *guzar svitasi* kiradi. Bu svita asosan qo'ng'ir gillar, alevrolitar, qumtoshlar, gravelitlar, konglomeratlardan iborat.

Bizga ma'lumki, Chirchiq-Ohangaron vodiysining geologiyasini o'rgangan Y.A.Skvorsov va V.N.Vasilkovskiylar o'zlarining "Erozion akkumulyativ sikllar" (1940) nazariyasini yaratishadi. Bunga ko'ra Chirchiq-Ohangaron daryo vodiysida neopleystotsen va golotsen davrida hosil bo'lgan jinslarning stratigrafik bo'linishiga qarab 4 majmuaga ajratish mumkin bo'ladi [5; 17-b.]. Shu o'rinda, Zarafshon daryo vodiysidagi jinslarning ham stratigrafik bo'linishi 4 ta majmuadan iborat. Bular *Azkamar*, *Qarnob*, *Suqayti* va *Zarafshon* majmualari hisoblanadi. Yuqori neopleystotsen zvenosidan boshlab Azkamar majmuasi shakllangan. U Oqtov tizmasining janubidagi tog'oldi tekisligi, Quduqsoy soyining konussimon yoyilmasi atrofi, Andoqsoy, Sebiston qishloqlarning atrofidagi kichik hududlarda tarqalgan. Uning tarkibida shag'alli-qumli yotqiziqnlarni hamda lyossimon jinslar mavjud bo'lib, qalinligi 800 m gacha yetadi.

Qarnob majmuasi Oqtov tizmasining tog'oldi tekisliklarida, Kattaqo'rg'on tumanning janubiy chegarasi bo'ylab (Kattaqo'rg'on suv ombori atrofidagi yerlarda) tarqalgan. Bu majmua yotqiziqnlarning tarkibida allyuvial-prolyuvial galkalar, konglomerat, lyoss va mayda qumli cho'kindi qoplamalari uchraydi. Tuman hududida Qarnob majmuasi komplekslarining qalinligi 270 m gacha yetadi.





**1-rasm. Kattaqo'rg'on tumanining geologik xaritasi (xarita O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi fond materiallari hamda O'zbekiston geologik atlasida mualliflar tomonidan tuzilgan)**

Suqayti majmuasi tuman hududida keng maydonlarni egallaydi. U Qoradaryoning chap sohili bo'ylab, Zarafshon kompleksidan janubda 1,0-5,0 km kenglikda, Chiqish kanali bo'ylab,

Quduqsoydan sharqda, Langarsoy va Quduqsoy soylarining orasidagi hududlarda tarqalgan. Suqayti majmuasi yotqiziqalarining tarkibida galka, shag'allar, qumlar, lyossimon jinslarning linzalari ko'p uchraydi. Mazkur majmua yotqiziqalarining qalinligi tuman hududida 70 m gacha yetadi.

Zarafshon majmuasi tuman hududida shakllangan eng yosh geologik struktura bo'lib, mazkur majmuaga tegishli yotqiziqalar tuman hududining markaziy qismlari - Miyonqol oroli, Oqdaryoning o'ng sohili bo'ylab 0,5-3,6 km kenglikda, Qoradaryoning chap sohili bo'ylab esa 1,3-4,6 km kenglikda, shuningdek, Jizmonsoy, Langarsoy, Qayrag'och, Quduqsoy soylarining qayirlarida keng tarqalgan. Zarafshon majmuasi, asosan, qumli-galkali hosilalar, g'olak toshlar, shag'allar, gil qatlamchalari hamda daryo qumlaridan tarkib topgan bo'lib, qalinligi 15 m gacha yetadi.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Kattaqo'rg'on tumani hududi geologik-geomorfologik jihatdan xilma-xil hisoblanadi. Tuman hududida bundan 600-650 mln yil oldin hosil bo'lgan qadimgi tog' jinslaridan tortib (Suyaltosh svitasi) hozirgi zamon daryolarining geomorfologik ishi natijasida hosil bo'lgan zamonaviy majmualargacha (Zarafshon majmuasi) uchratish mumkin. Tuman hududida ikki bor tog' hosil bo'lish jarayoni, ya'ni gersin va alp burmalanishlari yuz berganligi sababli uning relyefida gorst (tog'liklar) va grabenlar (botiqlar) yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur burmalanishlar natijasida tuman hududida Kattaqo'rg'on botig'ining shakllanganligi suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda xo'jalikda suv taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yishda ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on suv omborini bunyod etilishiga sabab bo'lgan.

Kattaqo'rg'on tumani hududida qadimgi intruziv jinslarning mavjudligi bu hududlarda paleozoy erasining toshko'mir davrida vulkanizm jarayonlari jadal kechganligini dalillaydi.

Tuman hududida uchrovchi Suqayti va Qarnob majmualari, asosan, prolyuvial-allyuvial jinslardan tarkib topgan bo'lsa, Zarafshon majmuasi yotqiziqalari esa, allyuvial jinslardan tuzilgan. Tuman aholisining katta qismi aynan mana shu Zarafshon kompleksi yotqiziqalari tarqalgan hududda istiqomat qilmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri mazkur hududlarning daryo bo'ylariga yaqinligi bo'lsa, yana bir sababi geologik jihatdan shag'allardan tarkib topganligi va yerosti suvlarining harakatlanishi qulayligi, bu orqali sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlarining yuqoriligi hamda landshaftlarning antropogen "yuk"ga chidamliligi bilan bog'liqdir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Абдикулов Ф. И. Самарқанд вилояти биоиклимий шароитлари ва улардан туризмни ривожлантиришда фойдаланиш имкониятлари. География фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: 2022.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Ўқитувчи”, 1996. 280 б.
3. Маматқулов М., Егамов В. Геология ва геоморфология. Дарслик. –Т.: “VneshInvestProm”, 2019. 208 б.
4. Хасанов И., Гўлямов Р., Шарипов Ш., Аvezov М., Ibragimova R. О'zbekiston tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. –Т.: “Ma'rifat”, 2023. 308 б.
5. О'zbekiston milliy atlası I jild. –Т.: “Kartografiya” IICHDK, 2020. 276 б.
6. Зияев Р.Р. Зарафшон ҳавзаси дарёлари сув режими фазаларининг иқлим ўзгариши шароитидаги силжишлари. География фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2021.
7. Ҳасанов Ж.Ю. Ўрта Зарафшон ҳавзаси ландшафтларида экологик туризмни ривожлантириш истиқболлари. География фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Самарқанд: 2022.
8. <https://lex.uz/docs/-3715170?ONDATE=27.06.2020%2000>